ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

INSON VA TABIAT MUAMMOSINING O'RGANILISHI

(XX-XXI asrlar jahon va o'zbek adabiyotshunosligi kontekstida)

Qaraqulov Azizbek,
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchisi

Badiiy adabiyotda inson borlig'i, uning barcha xatti-harakati tabiatga mutanosib holatda harakatga keltiriladiki, badiiy matndagi asar qahramonlari, ta'bir joiz bo'lsa, tabiatsiz bir lahza ham qimirlay olmaydi. Inson tabiatning yo'rig'ida yurgani sayin kamolotga yaqinlashadi, aksincha holatlarda esa u tanazzulga yuz tutishi shubhasiz. Bu ulkan aksioma, hayot haqiqati bo'lib, barcha insonlar ham turli sabablarga ko'ra bu qonuniyatni bir xil tarzda anglamaydilar: ko'r-ko'rona yoki ongli ravishda mazkur haqiqatlarga bo'ysunmaslik pozisityasida turadilar. Shu jarayonda vujudga kelgan mislsiz ziddiyatlarning badiiy ifodasi sifatida bitilgan asarlar inson va tabiat muammosining turli talqinlarini, turfa qiyofalarini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur muammolarni tasvirlash adabiyotning, uni bevosita tadqiq esa etish adabiyotshunoslikning o'zgarmas obyektlari bo'lib kelmoqda. Shu ma'noda munaqqid olim A.Rasulov to'g'ri ta'kidlaganidek, «Inson mo'jiza, uni o'rganishgan, tadqiq etishmoqda, mudom talqin etishadi. Fanning qanday sohasi bo'lmasin, alal oqibat, inson muammosiga kelib taqalaveradi»[1].

Tabiat timsollarining insonning ma'naviy olami bilan uzviy mantiqiy aloqador ekanligini o'z asarlari orqali aniq tekshirgan va bu haqda teran fikr-mulohazalar bildirgan rus faylasufi, adabiyotshunosi A.F.Losevdir. Uning inson va tabiat munosabatlariga doir quyidagi mulohazalarida mazkur muammo bamisoli dramatik asarning stkurturasi kabi qismlarga ajratilgan holatda tahlil etilgan: «...koinot, tabiat – teatr sahnasi. Odamlar esa – shu sahnada paydo bo'lib, o'z rolini ijro etadigan va so'ng ketadigan aktyorlardir. Ular qayerdan keladi? Osmondan, chunki odamlar koinotning namoyon bo'lishidir va o'sha yerga qaytib, u yerda dengizga qo'shilgan tomchilardek yo'q bo'lib ketadi. Yer esa ular o'z rolini bajaradigan sahnadir. Bu aktyorlar qanday pyesani o'ynaydi? Koinotning o'zi biz ijro etadigan drama va komediyalarni yaratadi. Faylasuf uchun faqat bitta narsani bilish yetarli: u aktyor, boshqa hech narsa emas»[2]. Bu qarashlar mashhur ingliz yozuvchisi V.Shekspirning teatr, inson va hayot haqidagi o'xshatishlari aks etgan fikrlarini yodga solsa ham, o'z kontekstida diqqatga sazovordir.

Dunyo adabiyotida inson va tabiat muammosi mavzusiga doir yuksak maqomda badiiy asarlar yaratgan yozuvchilar sirasida J.London, E.Xeminguey, E.S.Tompson, H.Hesse, Ch.Aytmatov kabi so'z san'atkorlarining nomlarini ko'ramiz. Jahon adabiyotshunosligida ushbu yozuvchilar ijodidagi inson va tabiat muammosi tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

J.London hikoyalarida o'z qahramonlarini tabiat bilan yolg'iz qoldiradi va shu orqali ularning insoniy irodasini, kuch-quvvatini sinovdan o'tkazadi. «Jek London «Hayotga muhabbat» nomli hikoyasida ikki kishining oltin izlab muzlagan yerlar bo'ylab mashaqqatli safar qilishini batafsil tasvirlaydi, – deb yozadi A.Treskova. – Ular duch keladigan qiyinchiliklarga ochlik, sovuq va yovvoyi hayvonlar bilan xavfli to'qnashuvlar kiradi. Oxir-oqibat ularning maqsadi farovonlik yoki boylik emas, balki hayotda qolish bo'lib qoladi»[3].

Biz, jahon adabiyotining yirik realist yozuvchisi E.Xeminguey nasrida ham inson va tabiat o'rtasida kechadigan kurash motivlarining yorqin namunalarini uchratamizki, bu, xususan, yozuvchining mashhur «Chol va dengiz» asarida yaqqol ko'zga tashlanadi. «Muallif «Chol va dengiz» asari orqali o'quvchilarga insonning butun koinotning bir qismi ekanligini anglatadi, – deb yozadi hind tadqiqotchisi S.Kumar. – Bundan tashqari, kosmik nuqtayi nazardan qaraganda, inson, baliq va tabiatdagi boshqa barcha mavjudotlar o'xshashdir. Garchi inson boshqa mavjudotlarga bir xil munosabatda bo'lmasa-da, umumbashariy vijdon insonga va tabiatning boshqa yaratiqlariga teng qarashni ta'minlaydi»[4].

[1] Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 22-23.
[2] Лосев А.Ф. Дерзание духа. – Москва: Политиздат, 1988. – С. 168.
[3] Трескова, А. Ю. The themes of struggle and survival in Jack London's "Tales of the North" / А. Ю. Трескова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 4 (346). – С. 312-314.
[4] Kumar S. Relation of nature and humans as represented in Ernest Hemingway's "The Old Man and the Sea". Transstellar journals. International Journal of English and Literature (IJEL). Vol. 7, Issue 4, Aug 2017, – P. 183-186.

E.S.Tompson ijodida hayvonot olamining nozik jihatlari qalamga olingan bo‘lib, yozuvchi bu mavzudagi asarlari orqali tabiat – inson – hayvonot tushunchalari orasida yuksak insoniy axloqiy rishtalar o‘rnatilishi zarur ekanligiga ishora qiladi. «E. Seton-Tompsonning hayvonlarni tasvirlash vositasi sifatida foydalangan «biografik metodi» ularning ichki dunyosining butun umri davomida o‘zgarish jarayonini qayd etish orqali adabiy animalizm vazifalarini eng maqbul tarzda hal etishga va axloqiy-tarbiyaviy masalalarni yechishga ko‘maklashadi»[1], – deb yozadi madaniyatshunos S.Belogurova.

Insoniyatning rivojlangan asrlarga kelib, tabiat va uning ajralmas tarkibiy qismlari: yer osti va yer usti boyliklari; hayvonot va nabotot olami; fauna va flora dunyosi ustidan hukmronlik o‘rnatish, tabiat resurslarini shafqatsizlarcha, ayovsiz ekspluatatsiya qilishini har qanday zamon, makon va hayotiy mezon bo‘lmasin, badiiy adabiyotda qoralab kelinadi.

Ch.Aytmatovning qator nasriy asarlarida ham shunday prinsipni ko‘rish mumkin. Yozuvchi asarlarida inson va tabiat konfliktlarini yuksak badiiy bo‘yoqlarda ochib beradi. Masalan, «Oq kema» qissasidagi ona bug‘uning qirilib ketishi ta’biri O‘rozqullar avlodi mansublarining bepusht – ertasi yo‘q, ajdod-avlod halqasini uzgan manqurtlar sifatida gavdalantirsa, «Qiyomat», «Kassandra tamg‘asi» kabi romanlarida yozuvchi insoniyatning tabiatga qarshi kurashini: tabiat qonuniyatlarini mensimay, unga nisbatan hurmatsiz munosabatda bo‘lish oqibatlari kishilik jamiyatini nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida badiiy xulosalar beradi. «Aytmatov bo‘rilar juftligi haqidagi hikoyasi orqali («Qiyomat» romanidagi syujet nazarda tutilmoqda. – A.Q.), aytish mumkinki, insoniyatni ogohlantirmoqda: shafqatsizlik va tabiatga nisbatan nooqilona munosabat butun umr davomida erta yoki kech insonning o‘zi uchun falokatga aylanadi. Dashtlarni yondirib, biz o‘z uyimizni kuydiramiz, hayvonlarni qiramiz, eng muhimi esa o‘zimizni va farzandlarimizni halok etamiz»[2].

Yuqorida nomlari qayd etilgan adiblar ijodiga oid tadqiqotlar bilan shug‘ullanish istagi dunyoning turli mamlakatlarida ilmiy faoliyat olib boradigan ko‘plab adabiyotshunoslarda ishtiyoq tug‘dirgan. Biz, tadqiqotimiz dorasida ularning ayrimlarinigina keltirish bilan chegaralandik.

Rus adabiyotshunosligida inson va tabiat muammosini o‘tgan turli yillar mobaynida qator olimlar o‘z tadqiqot ishlarida tahlilga tortganlar. Xususan, V.A. Nikolskiy (1973), G.V. Filippov (1984), G.D. Gachev (1988), I.O. Shaytanov (1989), T.Y. Grinfeld-Zingurs (1989), M.N. Epshteyn (1990), Y.M. Meletinskiy (1994), N.V. Kojuxovskaya (1995, 1996), A.I. Smirnova (1995, 2012), Y.M. Lotman (1996), L.V. Gurlenova (1998), N.N. Zabora (1998), Z.A. Kuchukova (2005), L.R. Chankayeva (2006), V.P. Romanenko (2008), S.A. Mantrova (2011), M.X. Sadulayeva (2013), R.E. Kipkeyeva (2020) kabi adabiyotshunoslarning mavjud adabiy turlarga xos birlamchi janrlarning ushbu aspekt tadqiqiga bag‘ishlangan dissertasion ishlari bilan tanishish asnosida inson va tabiat muammosi mavzusining ahamiyati yuqori ekanligiga, bu kabi monografik ko‘lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ham zarur ekanligiga yana bir karra amin bo‘ldik.

Adabiyotda tabiatning inson bilan bog‘liq holda tasvirlanishi, lirik qahramonning harakatlanadigan nuqtasi – adabiy makon (xronotop) muammosi, uning tashqi olam go‘zalligidan badiiy-estetik quvvat olish jarayonlari, ichki kechinmalarining tabiat hodisalari bilan bog‘liq holda simmetrik o‘xshashlik kasb etishi, peyzaj orqali umrning turli davrlari (bolalik, yoshlik, yetuklik, keksalik) va ularga xos hissiy-psixologik kechinmalarni tasvirlash mahoratiga oid zamonaviy tadqiqotlar yirik rus adabiyotshunos olimlari Y.M.Lotman va M.N.Epshteynning monografik ishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

«Yovvoyi hayvonlar inson bilan aloqa o‘rnatishga mutlaqo intilmaydi, aksincha, undan o‘zini chetga oladi, – deb yozadi Y.Lotman. – Inson esa boshidanoq ular bilan munosabat o‘rnatishga harakat qilgan, chunki hayvonlarning jamiyat hayoti va madaniyat rivojlanishi uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega ekanligini anglagan»[3]. Bu o‘rinda, bizningcha, olim badiiy asarlarda qalamga olingan hayvonot va nabotot olami sinoatlari, ularning obraz va detal o‘laroq badiiy matnda bajaradigan funksiyasi, turli ramzlarga yo‘g‘rilgan holatda ma’no anglatishi hamda peyzaj o‘laroq badiiy-estetik zavq berish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

M.Epshteynning MDH adabiyotshunoslari tomonidan alohida e’tirof qog‘ongan «Природа, мир, тайник, вселенной...» («Tabiat, dunyo, koinot siri...». Rus shoiri Boris Pasternakning «Sayr qilganda» sarlavhali she’rining ilk misrasidan olingan. – A. Q.) monografiyasida muallif inson va tabiat muammosi aks ettirilgan rus she’riyatidagi peyzaj lirikasining o‘ziga xos formatdagi tadqiqini amalga

[1] Белогурова С.П. анимализм как культурологический и художественный феномен в общественной мысли рубежа XIX-XX вв. Автореф... дисс. на соиск... уч... степ...канд... культ...наук. – Москва, 2011. – 25 с.

[2] Татриева А.Б. Проблема «человек и природа» в повести Ч. Айтматова «Плаха». Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 2 (35) Т.3. Февраль 2021 г. – С. 46-51.

[3] Лотман Ю.М. Семиосфера. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. / Ю.М. Лотман. СПб.: Искусство-СПб., 2000. – С. 35-36.

oshirgan. Monografiyada muallif rus peyzaj lirikasini meditatsion xarakteri, aks ettirilgan motivlari, peyzajlar va ijodkorlarning individual uslublarini tadqiq etish asnosida zarur xulosalarini aks ettirgan. Mazkur tadqiqotda peyzaj lirikasi orqali inson va tabiat munosabatlarining uzviy bog‘liqligi isbotlab berilgan.

«Peyzaj she’riyatidagi motivlarni o‘rganish ayniqsa muhim, – deb yozadi M.Epshteyn, – chunki ular eng barqaror va takrorlanadigan xususiyatlarga ega. Bu motivlar tabiat inson bilan so‘zlashadigan tilning asosiy unsurlarini, dastlabki timsollarini tashkil etadi»[1].

Inson va tabiat mavzusi tadqiqotchisi G.A.Koblyakova badiiy asardagi tabiat tasvirini klassik naturalizm, empatik naturalizm, qiyosiy antropologiya, sentimental animalistika, masallar, hayvonlar haqidagi ertaklar kabi turlarga ajratadi[2].

Yana bir olima N.N. Zabora o‘zining «Zamonaviy Shimoliy Kavkaz qissalarida inson va tabiat munosabatining badiiy talqini» deb nomlangan nomzodlik ishida olamning teng huquqli subyektlari sifatida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilingan va Shimoliy Kavkaz yozuvchilari tomonidan yaratilgan, inson va biosfera o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni tasvirlovchi badiiy konsepsiyalarni tekshiradi[3].

Tadqiqotchi L.R. Chankayeva «Aleksey Malishevning nasrida tabiat va inson o‘rtasidagi ma’naviy munosabatlar konsepsiyasi» mavzusidagi nomzodlik ishida yozuvchining badiiy olamini monografik tadqiq etish barobarida uning nasrida bo‘rtib turuvchi inson va tabiatning o‘zaro ma’naviy ta’sirini o‘rganadi[4].

Shimoliy Kavkazdagi insonlar va tog‘lar tabiati aks etgan asarlar badiiyatini tekshirgan olim V.P. Romanenko tadqiqotida R.Hamzatov, A.Keshokov, Q.Quliyev kabi shoirlar ijodiga oid tog‘lar tabiatini idrok etishning turli usullari, shuningdek tog‘da va tekislikda yashovchi aholi kechinmalari ifodasi tafovutlari tadqiq etilgan[5].

«K.G. Paustovskiyning 1910-1940-yillar nasrida inson va tabiat (qahramon tipologiyasi, ziddiyatning o‘ziga xosligi, ijodiy rivojlanish muammosi)» deb nomlangan nomzodlik ishida muallif S.A. Mantrova dunyoga tanilgan adibning realistik va natura-falsafiy nasrida keng joy ajratilgan inson va tabiat muammosining badiiy qiymatini tekshirgan. Xususan, u tadqiqotida K. Paustovskiy natura-falsafasining ijodiy rivojlanish muammosi, qahramon tipologiyasi va konfliktologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan[6].

Chechenistonlik olima M.X. Sadulayeva tabiat tasvirlarining ramziyligi va yozuvchilarning mifologik tafakkuri chechen nasrida falsafiy yo‘nalishni kuchaytirishi hamda ularda milliy o‘ziga xoslikni shakllantirishni yanada ta’minlashini, qolaversa bu o‘ziga xoslikda «milliy manzara», «milliy xarakter» va «milliy qahramon» kabi birliklar ma’no yaratuvchi unsurlarga aylanishini o‘zining «Chechen nasrida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy-falsafiy talqini (xx asrning 50-90-yillari)» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida isbotlab bergan[7].

O‘zi yashab turgan muhit adabiyotida asosiy motiv-obrazlar sifatida tasvirlanadigan tabiat hodisalari va inson munosabatlarining badiiy talqinini o‘rgangan yana bir olima R.E. Kipkeyeva «Shimoliy Kavkaz adabiyotida tabiat va inson muammosi: adabiy an’analarning ta’siri va milliy o‘ziga xoslik» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida tabiatning inson dunyosi bilan o‘zaro bog‘liqligi g‘oyasi Yevropa shoir va yozuvchilarining ijodiy amaliyotiga mos kelishi, ularning asarlarida tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar haqida shakllangan tasavvurlar tizimining turfa munosabatlari tahliliga oid yangi ilmiy qarashlarni ilgari suradi[8].

San’atkorlar, xususan, yozuvchilar tabiat, unib-o‘sgan joy, voqea-hodisalarni tasvirlash jihatidan olib qaraganda muayyan poetik makonning tasviriga moyillik nuqtayi nazaridan, bizningcha, tabiatan ikkiga bo‘linadi:

1) tog‘ va dasht tasvirlariga moyil, tog‘ va dasht ilmini, qonuniyatlarini yaxshi biladigan, o‘z asari qahramonlarini aynan tog‘ va dasht bilan bog‘liq xronotopda tasvirlaydigan yozuvchilar;

[1] Эпштейн М.Н. «Природа, мир, тайник вселенной...»: Система пейзажных образов в русской поэзии. – Москва: Высш. шк., 1990. – С. 7-8.

[2] Коблякова Г.А. Анималистическая литература / Г.А. Коблякова // Альманах современной науки и образования. – Тамбов: Грамота, 2010. – № 12 (43). – С. 208

[3] Qarang: Забора Н.Н. Художественная концепция человека и природы в современной Северокавказской повести. Автореф... дисс. на соиск... уч... степ...канд... филол...наук. – Нальчик, 1998. – 22 с.

[4] Qarang: Чанкаева Л. Р. Концепция духовного взаимодействия природы и человека в прозе Алексея Малышева. Автореф... дисс. на соиск... уч... степ...канд... филол...наук. – Майкоп, 2006. – 22 с.

[5] Qarang: Романенко В.П. Человек и природа гор в художественной литературе Северного Кавказа. Эволюция взглядови нравственный аспект проблемы. Автореф... дисс. на соиск... уч... степ...канд... филол...наук. – Нальчик, 2008. – 22 с.

[6] Qarang: Мантрова С.А. Человек и природа в прозе К.Г. Паустовского 1910-1940-х годов (типология героя, специфика конфликта, проблема творческой эволюции). Автореф... дисс. на соиск... уч... степ...канд... филол...наук. – Тамбов, 2011. – 25 с.

[7] Qarang: Садулаева М.Х. Художественно-философское осмысление взаимосвязи человека и природы в чеченской прозе (50-90-е годы xx века). Автореф... дисс. на соиск... уч... степ...канд... филол...наук. – Махачкала, 2013. – 24 с.

[8] Qarang: Кипкеева Р.Э. Проблема природы и человека в Северокавказской литературе: влияние литературных традиций и национальное своеобразие. Автореф... дисс. на соиск... уч... степ...канд... филол...наук. – Майкоп, 2020. – 25 с.

2) shahar infratuzilmasi tasvirlariga moyil, shaharda yashash hadisini olgan, tog‘ va dasht haqida yozish uchun mazkur muhit va shart-sharoitlarni yetarli darajada bilmaydigan, shunday bo‘lsa-da kechinmani «shahar romans»lari bilan bog‘lab poetik ma’no topadigan yozuvchilar.

Inson va tabiat mavzusini o‘z asarlarida aks ettirgan o‘zbek yozuvchilaridan Sh.Xolmirzayev, M.Safarov, N.Norqobilov, T.Murod, E.A’zam singari katta adiblar, bizning nazarimizda, «2-toifa»ga mansub ijodkorlar sanaladi. Shu ma’noda inson va tabiat mavzusiga ularning jahoniy mezonlarga muvofiq yondoshganliklarini ta’kidlash barobarida aytish kerakki, bugungi milliy adabiyotshunosligimiz ushbu yozuvchilar asarlaridagi inson va tabiat muammosi yechimiga hozirgacha maxsus kirishgan emas.

Umummiqyosda qaralganda, inson va tabiat muammosi nisbatan milliy adabiyotshunosligimizda kam tadqiq etilgan mavzular sirasiga kiradi. Garchi ushbu mavzu uchun yangi o‘zbek adabiyotining etalon shoir-yozuvchilari, dramaturglari ijodida yetarlicha manba mavjud bo‘lishiga qaramay, mavzuga adabiyotshunoslik mezonlari bilan ilmiy yondashish bir necha dissertatsion ishlarni, dissertatsiya boblarida aks etgan fasllarni va ilmiy maqola formati bilan kifoyalangan munosabatlarnigina qamrab olgan.

Milliy adabiyotshunosligimizda XX asrning 80-90-yillaridan boshlab inson va tabiat muammosi ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o‘z aksini topa boshladi. M.Farmonova, F.Salayev, X.Fayzullayev kabilarning dissertatsion ishlari shular jumlasidan.

M.Farmonova «80-yillar o‘zbek lirikasida tabiat va inson kosepsiyasi» nomli nomzodlik ishida o‘tgan asrning so‘nggi choragida samarali ijod qilgan R.Parfidan A.Qutbiddingacha bo‘lgan qator shoirlarning ijodida o‘z ifodasini topgan inson va tabiat (ekologik) muammolarini hamda ularning peyzaj lirikasining o‘ziga xos xususiyatlarini tekshirarkan, quyidagi fikrlarni o‘rinli ravishda keltirib o‘tadi: «Tabiatning poetik maqomiga xos belgilardan yana biri shundaki, odatda lirik qahramon o‘zini o‘rab olgan tashqi olam bilan uyg‘unlashib ketadi. Qahramonning ruhiy holati, ikchi kechinmalari, tashqi qiyofasini tasvirlashdi, ijodkorning estetik qarashlarini ifodalashda tabiatning poetik talqinidan foydalaniladi. Tabiat hodisalari lirik qahramon holatiga muqoyasa qilinadi, obraz kayfiyatiga mos ohanglar silsilasi tanlanadi»[1].

Tadqiqotchi F.Salayev «Hozirgi o‘zbek ilmiy fantastik adabiyotida inson va tabiat muammolari» mavzusidagi nomzodlik ishida fantastik asarlarda ilm-fan, texnikaning inqilobiy yutuqlari ta’sirida yuzaga kelgan ekologik muammolar va ularning salbiy oqibatlariga oid o‘rinlar tadqiq etilgan[2].

Taniqli cho‘lponshunos olim N.Yo‘ldoshevning «Cho‘lpon she’riyatida inson va tabiat talqini» nomli monografiyasida shoirning inson va tabiat, ijodkor va muhit haqidagi she’rlaridagi davr manzaralari hamda obraz yaratish mahorati bilan bog‘liq muammolar o‘z yechimini topgan.

«Cho‘lpon poeziyasida tabiat «mangu tutqunlikka kirgan o‘lka» qismati bilan chambarchas bog‘langan, – deb yozadi N.Yo‘ldoshev. – Ayniqsa, shoir tavallud topgan Farg‘ona vodiysi milliy mujohada davom etgan yillarda «chechaklar vodiysi», «qonlar vodiysi» holiga kelgan edi. Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish kerakki, she’riyatimizdagi ikkinchi bir guruh shoirlar Farg‘onani «baxtlar vodiysi», «gullar o‘lkasi»ga aylantirdilar. Haqiqatda esa vodiyning bahori o‘tib, kuzi boshlangan edi»[3]. Haqiqatan ham, shoir yaratgan peyzaj – ijtomoiy dardning timsoli sifatida o‘z davrining ayanchli manzaralarini ko‘rsatib bergan.

Shukur Xolmirzayev hikoyalari badiiyatini monografik doirada tadqiq etgan G.Tavaldiyeva dissertatsion ishining 1-bob, 1.2-fasli «Shukur Xolmirzayev ijodida tabiat va inson monosabatlari» deb nomlangan bo‘lib, unda muallif «Kulgan bilan kuldirgan», «Jarga uchgan odam», «Omon ovchining o‘limi», «Ko‘kboy», «Ot egasi», «Podachi», «Boychechak ochildi», «Yovvoyi gul» hikoyalarini tahlilga tortib, inson va tabiat munosabatlarining ziddiyatli, nozik qirralarini ochib berishga intilgan.

Bir o‘rinda G.Tavaldiyeva: «Sh.Xolmirzayev inson va tabiat munosabatlariga bag‘ishlab hikoyalar yozganida ham, tabiat hodisalariga suyanib konseptual publitsistik asarlar yaratganida ham, bosh maqsad – inson va tabiat munosabatlaridagi nomutanosiblikka qarshi kurashdi»[4], – deb to‘g‘ri ta’kidlaydi. Zotan, Sh.Xolmirzayevning shaxsi va ijodiy prinsiplari antikosmopolitistik qarashlarga yo‘g‘rilgan bo‘lib, yuzuvchi fitrati bilan ona tabiat ruhi aksariyat holatlarda uyg‘un keladi.

Yozuvchi N.Norqobilov asarlari poetikasini tadqiq etgan S.Bazarov dissertatsiyasining bir fasli «Inson va nabotot olami munosabatlarida shaxs fojiasi» tarzida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unda muallif yozu-

[1] Фармонова М. 80-йиллар ўзбек лирикасида табиат ва инсон концепцияси. Филол...фан.номз...дисс. – Тошкент, 1992. – Б. 148-149.

[2] Qarang: Салаев Ф. Ҳозирги ўзбек илмий фантастик адабиётида инсон ва табиат муаммолари. Филол...фан.номз...дисс... автореф. – Тошкент, 1994. – Б. 25.

[3] Йўлдошев Нормат. Чўлпон шеъриятида инсон ва табиат талқини. – Тошкент: Академнашр, 2016. – Б. 5-6.

[4] Тавалдиева Г. Шукур Холмирзаев ҳикояларида воқеликни бадиий идрок этиш принциплари. Филол...фан.номз...дисс....– Тошкент, 2001. – Б 41.

vchining «Ovul oralagan bo‘ri» qissasi tahlili orqali insonlarning hayvonot va nabotot olamiga shafqatsiz munosabatini asoslab beradi[1].

M.Safarov nasrini o‘rganayotgan tadqiqotchi F.Hafizova «Mengziyo Safarov asarlarida inson va tabiat munosabatlari talqini» nomli maqolasida yuzuvchining «Ayrishox» qissasi tahliliga to‘xtalib: «Mengziyo Safarov butun ijod yo‘li davomida inson va tabiat orasidan uyg‘unlik izladi. Tabiatga xiyonat qilib bo‘lmasligini, tabiat xiyonatni kechirmasligini, «Ayrishox» asarida ifodalab beradi»[2], – deb yozadi.

Umuman olganda, inson va tabiat muammosi mavzusining o‘rganilish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi va jahon adabiyotshunosligida bu mavzuda bir-biridan dolzarb tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biz, ana shu tadqiqotlarni saralab, eng taalluqlilarinigina ushbu fasl miqyosida ifodalashga intildik.

Rezyume. Ushbu maqolada insoniyat badiiy-estetik tafakkuri yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan davr – XX-XXI asrlar jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi tadqiqotlarida murojaat qilingan inson va tabiat mavzusining o‘rganilish bosqichlari o‘z ifodasini topgan.

Resume. This scientific article examines the stages of studying the topic of man and nature in world and Uzbek literary studies of the 20th-21st centuries. This period played a decisive role in the development of human artistic and aesthetic thinking.

Резюме. В данной статье отражены этапы изучения темы человека и природы в исследованиях мирового и узбекского литературоведения XX-XXI веков - периода, имевшего важное значение в развитии художественно-эстетического мышления человечества.

[1] Qarang: Базаров С. Нормурод Норқобилов асарларининг поэтикаси. Филол. фан. б-ча фалс. д-ри. (PhD) … дисс. – Жиззах, 2021. – 136 б.

[2] Hafizova F. Mengziyo Safarov asarlarida inson va tabiat munosabatlari talqini. “Modern Science and Research” international scientific journal. Volume 1 / ISSUE 2. – P. 511-513.